

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY MARKAZI

“INNOVATION TECHNOLOGIES IN SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2024-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

“PROVIDING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”

International scientific and practical online conference

(June 15, 2024 y) MATERIALS

«ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И
РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2024 г)

МАТЕРИАЛЫ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**"INNOVATION TECHNOLOGIES IN SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS"**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
(2024-yil, 15-iyun)
MATERIALLARI**

**"PROVIDING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS"**

**International scientific and practical online conference
(June 15, 2024)
MATERIALS**

**«ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И
РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»**

**Международная научно-практическая онлайн-конференция
(июня 15, 2024 г)
МАТЕРИАЛЫ**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta'lif tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to'g'risida o'tkazilgan majlisning bayoni ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, *O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida 2024-yil 15-iyun kuni "Innovatsion texnologiyalar asosida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash: muammo va yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.*

Mazkur konferensiyanı tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarining, soha mutaxassislarining, ta'lif sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us.

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

Tahrir hay'ati:

| | |
|-------------------|---|
| A.Sh.Xolmurodov | Jizzax viloyati PYMO-MM direktori, p.f.d., (DSc) |
| Sh.D.Abdurashidov | Jizzax viloyati PYMO-MM direktor o'rmosari |
| J.A.Mardonqulov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD) |
| A.Meliboyev | "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent |
| Sh.Haydarov | "Tillarni o'qitish va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti p.f.n. |
| M.Tilakova | "Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari" kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD) |
| P.Xolmatov | "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lif texnologiyalari" kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent |
| D.K.Norbekov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| M.M.Xolboyeva | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| T.Sh.Avazov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| O.U.Ergashev | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| Sh.A.Egamqulov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| M.M.Jabborov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| B.N.Qodirov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| F.M.Alimov | "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |

To'plamdan o'rın olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 19-iyundagi navbatdan tashqari yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bundan tashqari ona tili darslarida innovatsion texnologiyalari to'g'ri-ni-tog'ri qo'llash orqali o'quvchilarni yozma nutq jumlalarini to'g'ri tuzish va so'zlarni tog'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarekterlanadi.

Yozma nutqni egallashi bo'yicha bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi.

Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlanganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarini, so'z va harflarni yozish malakasi hosil bo'ladi, lekin finish belgilarini qo'llashga doir bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishlari sust bo'ladi.

Agar yuqorida keltirilgan texnologiyadan unumli foydalansilsa, maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uni mazmunini aniqlash, fikrini bayon etishi uchun ma'lumot toplash, muhim jihatlarini ajratib olish uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi [2].

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalligi shundaki;

- ta'limda ko'rgazmalilik eng birinchi o'rnlarda turadi;

- o'quvchini izlanishga undaydi;

- o'quvchi ta'lim jarayonini bir vaqtning ozida ko'radi, eshitadi, o'quchilarga kengroq keng qamrovdagagi katta hajimli materiallar I tezroq yetkazib beradi;

- o'quvchi tafakkurini shakllantradi;

- o'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi;

- mashg'ulotlarni jonli va ijodiy tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi;

- ta'lim mazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni xohlagan vaqtda o'quvchiga taqdim etadi [1].

Xulosa o'mida shuni ta'kidlashi joizki, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolliklarini olishlariga, ularning mashg'ulotlarni diqqat bilan tinglab, o'quv materialini tahlil qilib, taqposlash, xulosalar chiqarish kabi aqliy faoliyatining rivojlanishiga innovatsion texnologiyalar katta yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar royxati:

1. Abdullayeva Q va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari. -Toshkent: "O'qituvchi", 2004.
2. Ishmuhammedov R va boshqalar. "Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2008 y
3. Ishmuhammedov R va boshqalar. "Ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2010 yil.

IQTIDORLI YOSHLAR BILAN ISHLASH, O'QUVCHILARNING BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI O'TKAZISH VA KASB-HUNARGA YO'NALТИRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA KUTUBXONACHILARING ROLI

Musaqulova Laylo

Psi-24/2 guruhi talabasi

Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Umarova Sh.A.

Annotatsiya: Maqolada kutubxonachilik faoliyatida iqtidorli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos tomonlari haqida fikrlar bayon etilgan. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Foydaluvchi, ko'rgazmalar, kitobxonlik tanlovleri, elektron kitoblar, bibliografiya, bibliograf, kataloglar.

Barchamizga ma'lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlaboq, o'quvchilar va yoshlarni ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviy kamolati eng muhim masalalar darajasiga ko'tarildi. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2023-yildagi Murojaatnomasida ham kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida to'xtalib o'tilgan.

Ajdodlarimizdan qolgan buyuk ma'naviy meros hamda xalqaro tajribalarga ham suyanadigan bo'lsak, yosh avlodni barkamol va yetuk bo'lib shakllanishida jamiyatning har bir a'zosini o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bolaning tarbiyasi va ta'lif olishida ota-onaning roli hamda oilaviy muhit asosiy omil bo'lishini ta'kidlagan holda, bu jarayonga aloqador bir qator sohalar sirasiga kutubxonalar va ularda faoliyat yuritayotgan kutubxonachilarni ham tilga olishimiz joizdir.

Shubhasiz, yosh avlod nafaqat o'z oilasining, balki mamlakatning eng katta boyligi bo'lib hisoblanishini yodga olgan holda, ular orasidagi iqtidorli yoshlarni ushbu xazinaning haqiqiy duru gavharlariga qiyoslash mumkin. Bu iqtidorni o'z vaqtida ilg'ab olib, uni rivojlantirish va yanada sayqallash ota-onalar, o'qituvchilar, murabbiylar bilan birga kutubxonachilar zimmasidagi mas'uliyat hamdir. Zero, har qanday ma'naviy barkamollik va ilm-ma'rifatning negizi kitoblardan taralgan ziyo tufayligina vujudga keladi.

O'quvchi yoshlar bilan ishslash jarayonida ularning har biri alohida iqtidorga ega ekanligiga duch kelamiz, aslida ham shundayki, hech qaysi bola layoqatsiz yoki iqtidorsiz bo'lmaydi, faqat unga yetarli e'tibor qaratmagan ota-ona yoki mavjud imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmagan o'qituvchi – murabbiy bo'ladi.

Kutubxonachilik faoliyati o'quvchilardagi iqtidorni aniqlashda qanday bo'g'in bo'lishi mumkin? Bu iqtidorni to'g'ri yo'naltirish, yanada rivojlantirishda kutubxonachining o'mi nimadan iborat? Bunday savollarning tug'ilishi tabiiy holdir.

Keling, savollarga o'z tajribamiz orqali javob izlashga harakat qilib ko'ramiz. Kutubxonamizga tashrif buyurgan har bir foydalanuvchiga alohida nazar bilan boqib ko'raylik. Qaysi birisi har safar tarixiy kitoblarni tanlasa, boshqasi tabiatga oid kitoblarga qiziqadi, yana biriga koinot haqida, yoki yana biri texnikaga oid kitoblarni izlaydi. Shuning o'ziyoq boladagi qiziqish va iqtidorni yaqqol namoyon etadi. Agar kutubxonachida bolalar bilan ishslash ko'nikmasi va saviyasi yetarli bo'lsa, shu foydalanuvchilarning har biriga kelasi safar qanday kitobni tavsiya etishni o'ylab qo'yadi. Bola qiziqayotgan sohasini yana ham mukammalroq egallashi uchun tizimli yondashuvni amalga oshiradi, va aksincha, uni ushbu sohadan bezib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Buning uchun esa kitoblarni soddadan murakkabga tamoyili asosida o'quvchining yoshiga moslab tavsiya etishga harakat qiladi. Kutubxona fondini yangilayotgan vaqtida bolalarning asosiy qiziqishlarini inobatga olgan holda ish tutadi.

Ammo kutubxonaga biror marta tashrif buyurmagan o'quvchi bo'lsa-chi? Undagi qobiliyatni qanday aniqlash va kutubxonaga qanday jalb etish yo'lini tutish kerak? Bu toifa o'quvchilarga qanday kitoblar tavsiya qilish mumkin?

Ayni muammoni hal qilishga o'qituvchilar bilan hamkorlik va kutubxonachilar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar orqali yechim topish mumkin.

Har bir sinf rahbari bilan hamkorlik qilsh o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini haqida xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi. Maktab psixologidan ham o'quvchilarning alohida ajralib turuvchi tomonlarini bilib olish mumkin. Shu ma'lumotlar asosida bolalarni kutubxonaga jalb qilish yo'llari qidiriladi.

Maktabda o'tkazilayotgan har bir tadbirlarda kutubxonachining ishtiroki faoliyatini to'g'ri tashkil etishdagi muhim omillardan hisoblanadi. Chunki bunday tadbirlarda ham o'quvchilarning nazarimizdan chetda qolgan iqtidorlari namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqqan kutubxona xodimi ushbu o'quvchining qalbiga yo'l topib, unga o'z imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun albatta sohaga oid kitoblar o'qishi zarurligini singdirishi, kutubxonaga tashrif buyursa, unga qiziqarli kitoblar tavsiya etishini bildirishi kutubxona foydalanuvchilari sonini oshishiga xizmat qiladi.

Maktab kutubxonachilari tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar kutubxona faoliyati hamda fondining o'ziga xos reklamasi bo'lib xizmat qilishi bilan birga, iqtidorli yoshlarni kashf etish jarayoni hamdir. Har xil ko'rgazmalr, tarixiy sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar, kitobxonlik tanlovlari kabilarni tashkil etish o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, sinflararo va o'zaro sog'lom raqobat muhitiga asos soladi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlni mazmunli o'tkazishlariga ko'maklashishda ham kutubxonachilar o'qituvchi – murabbiylar bilan birdek mas'uliyatlidirlar. Chunki nazoratsiz bo'sh vaqt qanday oqibatlarga olib kelishi haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Yuqorida aytib o'tgan

barcha usullar bo'sh vaqtida kitob bilan oshno bo'lishga yordam beradi. Albatta, hozirgi texnika va zamonaviy texnologiyalar juda tez rivojlanayotgan davrda buning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Bolalar aksariyat vaqtlarini televizor, kompyuter yoki telefon qarshisida o'tkazayotgani hech kimga sir emas. Bunday holda o'quvchilarga elektron kitoblarni tavsiya qilish, keyin shu asarning kitob variantini taklif qilish orqali oz bo'lsa-da, kitobxonlik madaniyatiga o'rgata olish mumkin deb umid qilamiz. Yoki biror-bir asarning ekranlashtirilgan kinofilmi, multfilmi haqida bolalar bilan suhbatlashib, ularga shu kitobni tavsiya etish ham mumkin. Asarning ekran va kitob namunalarini solishtirish bilan ham bolada kitobga bo'lgan qiziqish ortishi mumkin.

Insonda kasb – hunarga bo'lgan layoqat ham bolalik va o'quvchilik davrlaridanoq kurtak yoza boshlaydi. Kutubxona fondida saqlanayotdan bu sohaga oid manbalarni o'quvchi yoshlarga to'g'ri tavsiya eta olish ulardagi kasb-hunar egallashga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi, kelajakda o'z kasbining ustalari yetishib chiqishini ta'minlaydi. Kutubxona fondidagi kitoblarni sohalarga oid qilib joylashtirish, aynan kasb-hunarlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tadbirlar, tanlovlар o'tkazish albatta samarasini beradi. Masalan, "Ko'rgazma - xobbi", "Kasbim - faxrim" uchrashuvlari, pazandachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, gulchilik, duradgorlik kabi to'garaklar bilan hamkorlikda turli tanlovlar tashkil etish va bunga tayyorgarlik jarayonida o'quvchilarini sohaga oid kitoblar hamda boshqa manbalar bilan ta'minlash asosiy o'rinni egallaydi. Shu o'rinda o'quvchilarda aynan kutubxonachilik kasbiga mehr uyg'otishni ham yo'lga qo'yish mumkin. Masalan, ko'ngilli foydalanuvchilardan iborat "Yosh bibliograflar" klubini tashkil etib, ularga bibliografiya haqida ma'lumotlar berish bilan bir qatorda kataloglar bilan ishslash, kitoblarga ishlov berish va butlash usullarini o'rgatish o'rgatish orqali yuqorida tilga olingan maqsadga erishiladi. Natijada kutubxona ishslash ularni yanada kitobga mehr qo'yishiga sabab bo'ladi. Manbalarda keltilishicha Rossiya davlatida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga kutubxonashunoslik va bibliografiya asoslariga oid dastlabki tushunchalar fan sifatida o'qitiladi va bu kutubxonachilik kasbiga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kutubxonachi davr bilan birga qadam tashlamog'i, o'z kasbini sidqidildan sevgan holda mas'uliyat bilan yondashib, faoliyatida barcha imkoniyatlardan keng foydalanmog'i lozim. Buni amalga oshirishning yagona yo'li o'z ustida tinmay ishslash va izlanishdan to'xtamaslikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash– yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi ma'ruzasi.–T.:O'zbekiston, 2017. –48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.–T.: "O'zbekiston", 2018.–80 b.
4. Mirziyoev Sh.M. "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muxim mezonidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi ma'ruzasi."Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil 8 dekabr, 254-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qumitasining 2014 yil 20 fevraldagagi "Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi yo'
7. G'anieva D.A. "Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli" -T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. G'anieva D.A., Ratner R.I. "Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish". -T., Yangi asr avlod, 2013

Elektron ta'lim-tarbiya resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.
2. Toshkent davlat pedagogika universiteti: www.tdpu.uz
3. Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giu.uz
4. Ijtimoiy axborot ta'limg portalı: www.Zionet.uz.

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Pardaboyeva Madina Farxod qizi

Psi-23/2 guruhi talabasi

Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Umarova Sh.A.

ANNOTATSIYA

Tarbiya keng ma'nodagi yoshlarni, insonlarni ob'ektiv va sy'bektiv ta'sirlar orasida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir. Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilish kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi kerak.

Kalit so'zlari: Tarbiya masalasi, ob'ektiv va sy'bektiv ta'sirlar, axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish, 'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'lboslovchi, tarbiyachi, ibrat - namuna usuli, ishontirish, tushuntirish, uqtirish, rag'batlantirish.

АННОТАЦИЯ

Воспитание в широком смысле-процесс нравственного, умственного, практического, физического становления молодежи, людей среди объективных и субъективных воздействий. Ребенок хочет учиться, получать воспитание, взросльть и активно участвовать в жизни общества. Педагог должен знать, каким способом его воспитывать, в каких условиях взаимоотношений, в каком педагогическом процессе. При этом ребенок не должен забывать и о том, что он является активным участником самоизменения.

Ключевые слова: проблема воспитания, объективные и субъективные влияния, моральное, умственное, практическое, физическое формирование, "друг - Пощечина", тренер, проводник, наставник, метод наглядного примера, убеждение, объяснение, убеждение, поощрение.

ANNOTATION

Upbringing is a process of moral, mental, practical, physical formation of young people, people in a broad sense, among objective and sy'bective influences. The child wants to study, be brought up, grow up and actively participate in the life of society. It is necessary to know in what way, in what relationship conditions, in what pedagogical process it is necessary to educate the educator. At the same time, the child should not forget that he is an active participant in self-transformation.

Keywords: issue of upbringing, objective and sy'bective influences, moral, mental, practical, physical formation, 'teacher - friend, coach, guide, educator, lesson - pattern method, persuasion, explanation, encouragement, encouragement.

Har bir inson hayotidagi psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaning roli juda katta ahamiyat kasb etadi. Lekin inson shaxsining tarkib topishi uchun nafaqat bu faktorlar, balki nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siri ham bor. Insonlarga nasliy yo'l bilan ba'zi xususiyatlар beriladi. Masalan, tananing tuzilishi, ko'z va sochlari rangi, ovozi hamda gapirish uslublari, ayrim hatti-harakatlari

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Ilg'or xorijiy tajribalar asosida pedagog kadrlarning uzlusiz malakasini oshirish jarayonlari <i>A.Sh.Xolmurodov</i> | 6 |
| Многолетняя динамика изменения морфометрических характеристик в аральском море по мере его высыхания в зависимости от влияния естественных и антропогенных факторов <i>А.М. Гареев, С. Н. Азимова, Д.С. Суюнов</i> | 8 |
| Булажак үкитувчиларни тайёрлашда хамкорлик сртатегияларидан фойдаланиш имкониятлари <i>Сафарова Роҳат Гайбуллаевна</i> | 13 |
| Специфика проектирования диагностического проекта: отношение между языком и теорией разума билингвальных детей в полилингвальной среде <i>Кучуков Христо, Ушакова Оксана Семеновна, Яшина Валентина Ивановна, Шабаева Гузель Фагимовна</i> | 16 |
| WSN with Internet of Things (IoT) For Tracking Animals <i>Tanveer Baig Z</i> | 18 |
| Непрерывное образование будущих педагогов <i>Дуйшев Женишбек Аматисакович, Мамадалиева Клара Акимовна</i> | 23 |
| Профессиональная компетентность педагогов во взаимодействии с родителями воспитанников <i>Пиличенко Елена Александровна</i> | 27 |
| The philosophy of “empty” in the novel “chapaev and emptiness <i>Adiba Kasimova Begaliyeva</i> | 29 |
| Инновационная подготовка обучающихся на базе технопарка, мастерской профессионального мастерства и центра развития компетенций «акмуллинская академия развития детей и семейного образования соты» в поликультурной и полилингвальной среде <i>Шабаева Гузель Фагимовна</i> | 33 |
| Готовность студентов будущих учителей к исследовательской деятельности <i>P.Х.Джураев</i> | 37 |
| Поурочные разработки по химии <i>Ражабова Мавжуда Нуриллаевна</i> | 41 |
| Hayotiy muammolarni hal qilishda talabalarga xos koping strategiyalar <i>Bekchanov Xusinboy Karimberganovich</i> | 50 |
| Maktabgacha ta'limi samarali tashkil etishda steam texnologiyasining ahamiyati <i>Mamanabiyeva Malikaxon Axunjanovna</i> | 53 |
| O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish <i>Jabborov Abdug'ani</i> | 56 |
| Maktab o'quvchilarni amaliy-tasviriy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi <i>Pardaev B.A</i> | 60 |
| Boshlang'ich ta'limga innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari <i>Karimova Gulchexra Isakovna</i> | 62 |
| O'quvchilar savodxonligini oshirishda timss topshiriqlaridan foydalanish <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i> | 64 |
| Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'limga samaradorligini oshirish yo'llari <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i> | 66 |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda fanlararo aloqadorlikning dolzarbliji <i>N.Ergasheva</i> | 69 |
| Zamonaviy o'qitvchi-kelajak yaratuvchisi <i>N.Ergasheva</i> | 72 |
| Boshlang'ich ta'limga integratsiyon darslar orqali o'quvchilarni rivojlantirish <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i> | 74 |

| | |
|--|-----|
| <i>Нуртаев Уринбай, Мансурова Мафтуна</i> | 517 |
| Teaching drawing to young creative students through graphic programs and forming their artistic thinking | |
| <i>Abdumajitov Avazjon Shuhrat o'gli</i> | 519 |
| Chizmachilik fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish. | |
| <i>Jumayev Isroil Omardonlat o'g'li</i> | 522 |
| Tarix fanini o'qitishda ishchi daftarlardan foydalanish | |
| <i>Eshbekova Dilafro'z To'ychiyevna</i> | 525 |
| Ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar | |
| <i>Nizomova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Shohida Absalomovna</i> | 527 |
| Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish | |
| <i>Nizomova Nodira Sadikjonovna</i> | 528 |
| Iqtidorli yoshlar bilan ishslash, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda kutubxonachilarning roli | |
| <i>Musaqulova Laylo, Umarova Shohida Absalomovna</i> | 531 |
| Ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik asoslari | |
| <i>Pardaboyeva Madina Farxod qizi, Umarova Shohida Absalomovna</i> | 534 |
| Milliy o'quv dasturining yaratilishi va uning afzalliklar | |
| <i>T.Avazov</i> | 537 |
| Innovatsion pedagogik ta'lrim texnologiya usullarining ta'lrim jarayonidagi afzalligi | |
| <i>Ochilova Sevara, Umarova Shohida Absalomovna</i> | 539 |
| Maktab adabiyot darslarida mumtoz adabiy matnlardagi morfemalarning anglatgan ma'nolarini o'quvchilarga tushuntirish | |
| <i>H.R.Nahiyev, Ibragimova Zebiniso</i> | 543 |
| Bulutli texnologiyalardan foydalanish | |
| <i>T.Sh.Avazov</i> | 548 |
| Boshlang'ich sinflarda ta'limi-didaktik o'yinlardan foydalanish | |
| <i>Jansaitova J.B.</i> | 550 |
| Л.А. Зиминнинг археологик изланишлари ва уларнинг натижалари | |
| <i>Жамол Юлдашев</i> | 555 |
| В.А.Шишкиннинг тадқиқотлари: Варахшада олиб борилган изланишлар ва унинг илмий натижалари | |
| <i>Жамол Юлдашев</i> | 564 |
| Бошланғич синф ұкувчиларида ахлоқий фазилатларни шакллантиришнинг амалий тизими | |
| <i>Маматова Азиза Махаматжоновна</i> | 566 |
| Inklyuziv ta'lrim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv | |
| <i>Sh.X.Kabilova</i> | 569 |
| Мотивированные люди для удовлетворения собственных потребностей | |
| <i>Ахмаджонов Д.У., Султанова Ю.Р., Песоцкий М.В., Абдусаматова Ш.А.</i> | 572 |
| Развитие интеллектуального творческого потенциала студентов | |
| <i>Кувшинова А.А., Рыбалкина Н.К., Турсунова Ю.Ш. Абдусаматова Ш.А.</i> | 575 |
| Значимость коммуникации в семье как основная социальная система развития и социализация ребенка | |
| <i>Исмаилова Г.Р., Бахтибекова Ж.М., Казаков Д.И. Абдусаматова Ш.А.</i> | 579 |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishslash kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyatining o'rni | |
| <i>Quranboyeva Muxarram Shavkat qizi</i> | 580 |
| Научные этапы - предмета "методика преподавания математики" | |
| <i>Султанирад Саитганиевич Имомбердиев</i> | |